New Day in Medicine
Новый День в Медицине
NDM

TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal









AVICENNA-MED.UZ

ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

10 (96) 2026

Сопредседатели редакционной коллегии:

Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Д.Т. АШУРОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛОТОВА
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
И.Ю. МАМАТОВА
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
Г.У. НУРОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н ГУСЕЙНОВА (Азарбайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV(Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE

Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал

УЧРЕДИТЕЛИ:

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)

Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)

А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)

Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)

Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)

У.К. КАЮМОВ (Тошкент)

Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)

А.А. НОСИРОВ (Ташкент)

А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)

Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)

Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

10 (96)

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com
E: ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

2026
Октябрь

Received: 20.09.2026, Accepted: 06.10.2026, Published: 10.10.2026

UO'K 616.61-002:618.3-007

SIMPTOMSIZ BAKTERIURIYALI HOMILADORLARNING TURMUSH O'RTOQLARIDA UROGENITAL MIKROBIOTSENOZ HOLATI VA ANTIBIOTIKLARGA SEZUVCHANLIK PROFILI

Matrizayeva Qurbonbika Madrimovna https://orcid.org/0009-0002-5737-7426
e-mail: Matrizayeva@gmail.com

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O‘zbekiston, Buxoro sh. A. Navoiy kochasi 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ ***Rezyume***

Maqsad: simptomsiz bakteriuriya (SB) aniqlangan homiladorlarning turmush o'rtoqlarida siydik va sperma suyuqligi mikroflorasini o'rganish hamda er va xotindan ajratilgan shtammlarning antibiotiklarga sezuvchanligini qiyosiy baholash. Material va usullar: SB aniqlangan 80 nafar homilador (45 nafari erlari bilan birga tekshirilgan) va 30 nafar sog'lom homilador hamda ularning turmush o'rtoqlari tekshirildi. Siydik va sperma suyuqligi bakteriologik ekildi, sezuvchanlik disk-diffuziya usuli va BD Phoenix M50 analizatorida aniqlandi. Natijalar: asosiy guruh erkaklarida steril siydik namunasi 4,4% (nazoratda 23,3%), steril sperma 6,7% (nazoratda 56,7%; p<0,001) holatda qayd etildi. E. coli siydikda 24,4%, spermada 22,2% uchradi, K. pneumoniae esa faqat asosiy guruhda aniqlandi. Aminoglikozidlar (75,0%) va levofloksatsin (71,25%) eng faol preparatlar bo'ldi, amoksitsillin, ko-trimoksazol va klaritromitsinga rezistentlik 62,5–80,0% ni tashkil etdi. Xulosa: jinsiy sherik urogenital trakti SB uchun reinfeksiya manbai bo'lib xizmat qiladi, shu sababli juftlikni birga tekshirish va antibiotikogramma asosida davolash maqsadga muvofiq.

Kalit so'zlar: simptomsiz bakteriuriya, homiladorlik, jinsiy sherik, sperma suyuqligi, Escherichia coli, antibiotikorezistentlik, BD Phoenix M50.

СТАТУС МИКРОБИОЦЕНОЗА МОЧЕПОЛОВОЙ СИСТЕМЫ И ПРОФИЛЬ ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ К АНТИБИОТИКАМ У ПАРТНЕРОВ БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН С СИМПТОМАТИЧЕСКОЙ БАКТЕРИУРИЕЙ

Матризаева Курбонбика Мадримовна https://orcid.org/0009-0002-5737-7426
e-mail: Matrizayeva@gmail.com

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино, Узбекистан, город Бухара, ул. А. Навои, 1. Тел.: +998 (65) 223-00-50. e-mail: info@bsmi.uz

✓ ***Резюме***

Цель: изучить микрофлору мочи и эякулята у мужей беременных с бессимптомной бактериурией (ББ) и сравнить антибиотикочувствительность штаммов, выделенных у супругов. Материал и методы: обследованы 80 беременных с ББ (45 — вместе с мужьями) и 30 здоровых беременных с супругами. Проведены бактериологический посев мочи и эякулята, определение чувствительности диско-диффузионным методом и на анализаторе BD Phoenix M50. Результаты: у мужей основной группы стерильная моча выявлена в 4,4% (в контроле 23,3%), стерильный эякулят — в 6,7% (в контроле 56,7%; p<0,001). E. coli обнаружена в моче у 24,4%, в эякуляте у 22,2%, K. pneumoniae — только в основной группе. Наибольшую активность сохраняли аминогликозиды (75,0%) и левофлоксацин (71,25%); резистентность к амоксициллину, ко-тримоксазолу и кларитромицину составила 62,5–80,0%. Заключение: урогенитальный тракт полового партнёра является источником реинфекции при ББ, что обосновывает совместное обследование и лечение пары по данным антибиотикограммы.

Ключевые слова: бессимптомная бактериурия, беременность, половой партнёр, эякулят, Escherichia coli, антибиотикорезистентность, BD Phoenix M50.

UROGENITAL MICROBIOCENOSY STATUS AND ANTIBIOTICS SENSITIVITY PROFILE IN THE PARTNERS OF PREGNANT WOMEN WITH SYMPTOMATIC BACTERIURIA

Matrizayeva Qurbonbika Madrimovna https://orcid.org/0009-0002-5737-7426
e-mail: Matrizayeva@gmail.com

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sino, Uzbekistan, Bukhara city. A. Navoi street 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ ***Resume***

Aim: to study the urinary and seminal microbiota of male partners of pregnant women with asymptomatic bacteriuria (ASB) and to compare the antimicrobial susceptibility of isolates obtained from both spouses. Materials and methods: 80 pregnant women with ASB (45 examined together with their husbands) and 30 healthy pregnant women with their partners were enrolled. Urine and semen cultures were performed; susceptibility was tested by disk diffusion and the BD Phoenix M50 system. Results: sterile urine was found in 4.4% of male partners in the main group versus 23.3% in controls, and sterile semen in 6.7% versus 56.7% (p<0.001). E. coli was isolated from urine in 24.4% and from semen in 22.2%; K. pneumoniae occurred only in the main group. Aminoglycosides (75.0%) and levofloxacin (71.25%) remained the most active agents, whereas resistance to amoxicillin, co-trimoxazole and clarithromycin reached 62.5–80.0%. Conclusion: the male urogenital tract acts as a reservoir of reinfection in ASB, which supports joint couple screening and susceptibility-guided treatment.

Keywords: asymptomatic bacteriuria, pregnancy, male partner, semen, Escherichia coli, antimicrobial resistance, BD Phoenix M50.

Dolzarbligi

Simptomsiz bakteriuriya homiladorlikda eng ko'p uchraydigan infeksion holatlardan biri bo'lib, turli mintaqalarda uning chastotasi 2–10% dan 20% gacha baholanadi [6, 12]. Davolanmagan holatlarda u gestatsion pielonefrit, muddatidan oldingi tug'ruq va kam vaznli chaqaloq tug'ilishi xavfini oshiradi, shu sababli xalqaro va milliy klinik tavsiyalar homiladorlikning birinchi trimestrida bakteriologik skriningni talab qiladi [1, 9, 11].

SB etiologiyasida grammanfiy enterobakteriyalar, ayniqsa uropatogen *Escherichia coli*, yetakchi o'rin tutadi [4, 7]. Uropatogenlar odatda ichak va periuretral sohadan ko'tariluvchi yo'l bilan tushadi, ammo jinsiy hayot davomida sheriklar o'rtasida mikroorganizmlar almashinuvi ham sodir bo'ladi. Shunga qaramay, amaliyotda SB faqat homilador ayolning muammosi sifatida qaraladi va erning urogenital mikroflorasi deyarli tekshirilmaydi.

Antibiotikorezistentlikning o'sishi masalani yanada murakkablashtiradi. Turli mamlakatlarda homiladorlardan ajratilgan uropatogenlarning ampitsillin, amoksitsillin va ko-trimoksazolga chidamliligi 50% dan oshgani qayd etilgan [3, 10, 13]. Agar er va xotin organizmidagi shtammlar sezuvchanligi bir xil bo'lmasa, faqat ayolning antibiotikogrammasiga asoslangan davo sherikdagi infeksiya o'chog'ini bartaraf eta olmaydi.

Xorazm viloyatida homiladorlar orasida siydik yo'llari infeksiyalari keng tarqalgan bo'lsa-da [14], jinsiy sherik mikroflorasining SB dagi o'rni o'rganilmagan.

Tadqiqot maqsadi — SB aniqlangan homiladorlarning turmush o'rtoqlarida siydik va sperma suyuqligi mikroflorasini baholash hamda er va xotindan ajratilgan shtammlarning antibiotiklarga sezuvchanligini qiyosiy tahlil qilish.

Material va usullar

Tadqiqot 2023–2026 yillarda Urganch shahar oilaviy poliklinikalari va shahar tug'ruq kompleksi bazasida prospektiv tarzda o'tkazildi. Hududiy holatni baholash uchun sanitariya-epidemiologiya xizmati bakteriologik laboratoriyasining 2021–2022 yillardagi ma'lumotlari (957 nafar homilador) retrospektiv tahlil qilindi.

Klinik qismga homiladorlikning I trimestrida, shikoyatlarsiz, 24 soat oraliqda olingan ikki o'rta oqim siydik namunasida bir xil uropatogen $\geq 10^5$ KOE/ml konsentratsiyada aniqlangan 80 nafar ayol kiritildi. Ular ikki guruhga ajratildi: **1-guruh** (n=45) — erlari ham siydik va sperma suyuqligini topshirgan

juftliklar; **2-guruh** (n=35) — erlari tekshiruvdan bosh tortgan ayollar. **Nazorat guruhini** siydigida bakteriuriya <10⁴ KOE/ml bo'lgan 30 nafar amaliy sog'lom homilador va ularning erlari tashkil etdi. Ayollarning yoshi 18–35 (o'rtacha 27) yoshni tashkil qildi. Surunkali buyrak kasalligi, og'ir ekstragenital patologiya, koagulopatiya va bir nechta jinsiy sherikka ega ayollar tadqiqotga kiritilmadi.

Siydik CLED, qonli agar, Endo va Saburo muhitlariga kalibrlangan ilmoq (0,001 ml) bilan sektorli usulda ekildi, 37°C da 18–24 soat inkubatsiya qilindi. Erkaklarda sperma suyuqligi ham xuddi shu tartibda tekshirildi, 11 nafar erkakda urogenital mikrobiotsenoz qo'shimcha ravishda Androflor (PZR) tizimida baholandi. Shtammlarning antibiotiklarga sezuvchanligi go'sht-peptonli agarda disk-diffuziya usuli va BD Phoenix M50 (Becton Dickinson, AQSh) avtomatlashtirilgan analizatorida MIK bo'yicha aniqlanib, natijalar CLSI/EUCAST mezonlari asosida S, I, R toifalariga ajratildi.

Statistik tahlil Excel dasturida bajarildi: nisbiy ko'rsatkichlar Pirson χ^2 mezoni, kichik kuzatuvlarda Fisherning aniq testi bilan solishtirildi. Siydik va sperma suyuqligidagi sezuvchanlik natijalarining mosligi Bland–Altman usulida, bog'liqlik Pirson korrelyatsiya koeffitsienti (r) bilan baholandi. $p<0,05$ ishonchli deb qabul qilindi.

Natija va tahlillar

Hududiy ma'lumotlarga ko'ra, bakteriuriya musbat natijalar ulushi 2021 yilda 19,8% (415 nafardan 82 nafar), 2022 yilda 26,2% (542 nafardan 142 nafar) ni tashkil etdi. Ikki yilda ham *E. coli* asosiy qo'zg'atuvchi bo'lib qoldi (45,2% va 33,8%), biroq *St. saprophyticus* (8,5% dan 16,2% gacha) va *Enterobacter* spp. (2,4% dan 10,5% gacha) ulushi ishonchli o'sdi ($p<0,05$).

Klinik guruhlarda ayollar siydigidan ham *E. coli* eng ko'p ajratildi: 1-guruhda 62,2%, 2-guruhda 40,0% ($\chi^2=3,98$; $p<0,05$). Ikkinchi o'rinda *St. epidermidis* (22,2% va 34,2%; $p>0,05$) turdi, *K. pneumoniae*, *P. mirabilis* va *P. vulgaris* asosan 2-guruhda uchradi.

Erkaklar tekshiruvi asosiy guruh turmush o'rtoqlarida yashirin kolonizatsiya yuqori ekanini ko'rsatdi. Siydikda eng ko'p 1×10^5 KOE/ml darajadagi o'sish (46,7%), sperma suyuqligida esa xuddi shu daraja (35,6%) qayd etildi. Mikroorganizmlar tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

Asosiy guruh erkaklarida *E. coli* siydikda nazoratdagidan 7,4 marta, spermada 3,3 marta ko'p uchradi, *K. pneumoniae* esa faqat shu guruhda aniqlandi. Androflor tahlilida *Gardnerella vaginalis* (5,9 lg GE/ml), *Ureaplasma urealyticum* (4,5), *U. parvum* (4,1) va *Mycoplasma hominis* (4,53) hamda anaerob shartli-patogen flora ustunligi qayd etildi; *M. genitalium*, *T. vaginalis*, *N. gonorrhoeae* va *C. trachomatis* topilmadi.

Ayollardan ajratilgan shtammlarga aminoglikozidlar (S=75,0%; R=12,5%) va levofloksatsin (S=71,25%) eng faol bo'ldi. Siprofloksatsin (57,5%), fosfomitsin (48,75%) va doksitsiklin (36,25%) o'rtacha samaradorlikni ko'rsatdi. Amoksitsillin (R=75,0%), ko-trimoksazol (R=62,5%), sefazolin (R=63,8%), klaritromitsin (R=80,0%) va nifuroksazid (R=93,8%) amalda samarasiz bo'lib chiqdi.

Erkaklarda bir xil antibiotikka sezuvchanlik siydik va spermada farq qildi (2-jadval). Bland–Altman tahlilida o'rtacha farq (bias) −0,39 ni tashkil qildi, ya'ni umumiy moslik qoniqarli bo'lsa-da, alohida preparatlarda klinik ahamiyatli tafovutlar mavjud.

Er va xotin o'rtasida eng katta farq amoksitsillin ($\chi^2=11,45$; $p=0,0007$) va sefotaksim ($\chi^2=14,3$; $p=0,0002$) bo'yicha kuzatildi. Bundan tashqari, erkaklardagi bakteriuriya titri bilan ayollarda gestatsion pielonefrit rivojlanishi o'rtasida o'rtacha kuchli to'g'ri korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,65$; $p<0,01$).

1-jadval. Erkaklar siydigi va sperma suyuqligida ajratilgan mikroorganizmlar, n (%)

Mikroorganizm	Siydik: asosiy (n=45)	Siydik: nazorat (n=30)	p	Sperma: asosiy (n=45)	Sperma: nazorat (n=30)	p
O'sish yo'q	2 (4,4)	7 (23,3)	<0,05	3 (6,7)	17 (56,7)	<0,001
E. coli	11 (24,4)	1 (3,3)	<0,05	10 (22,2)	2 (6,7)	<0,05
K. pneumoniae	6 (13,3)	0	<0,05*	11 (24,4)	0	<0,01*
St. epidermidis	8 (17,8)	6 (20,0)	>0,05	15 (33,3)	8 (26,7)	>0,05
St. aureus	6 (13,3)	0	<0,05*	3 (6,7)	0	>0,05*
Enterococcus spp.	2 (4,4)	7 (23,3)	<0,05	2 (4,4)	2 (6,7)	>0,05
Candida spp.	5 (11,1)	0	>0,05*	6 (13,3)	0	<0,05*
St. saprophyticus	0	7 (23,3)	<0,01*	3 (6,7)	1 (3,3)	>0,05

*Izoh: * — Fisherning aniq testi.*

2-jadval. Er va xotin shtammlarining tanlangan antibiotiklarga sezuvchanligi (S, %)

Antibiotik	Erkak: siydik (n=45)	Erkak: sperma (n=45)	p (siydik–sperma)	Ayol: siydik (1-guruh)	p (er–xotin)
Amikatsin	73,3	91,1	0,054	84,4	>0,05
Levofloksatsin	57,8	80,0	0,04	71,1	0,271
Amoksitsillin	42,2	11,1	0,002	11,25†	0,0007
Sefotaksim	31,1	11,1	0,04	0	0,0002

Izoh: † — umumiy tanlanma (n=80) bo'yicha.

Tahlillar

Olingan natijalar SB ni faqat ayol organizmi doirasida ko'rish yetarli emasligini ko'rsatadi. Asosiy guruh erkaklarining atigi 4,4% ida siydik va 6,7% ida sperma steril bo'lgani, nazoratda esa bu ko'rsatkichlar 23,3% va 56,7% ga yetgani turmush o'rtoqlarda sezilarli bakterial yuklama borligidan dalolat beradi. Erkaklarda *E. coli* va *K. pneumoniae* ning ayollardagi spektrga o'xshash tarzda yuqori chastotada uchrashi juftlik ichida shtammlar almashinuvi ehtimolini qo'llab-quvvatlaydi.

Adabiyotda uropatogen *E. coli* ning qin va periuretral sohani kolonizatsiya qilishi, epiteliyga adgeziya va persistensiya omillari batafsil yoritilgan [4, 7, 16]. Eronlik mualliflar homiladorlardagi SB izolyatlarida virulentlik genlari va ko'p dorili rezistentlik keng tarqalganini ko'rsatgan [8]. Bizning ma'lumotlarimiz bu jarayonga yana bir halqa — erkak urogenital traktidagi rezervuarni qo'shadi. Erkaklardagi bakteriuriya titri bilan ayollarda gestatsion pielonefrit o'rtasidagi bog'liqlik (r=0,65) ushbu rezervuarning klinik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Rezistentlik profili hududda amoksitsillin va ko-trimoksazolni empirik davo uchun yaroqsiz qiladi. Bu ko'rsatkichlar Rossiya, Hindiston, Keniya va Ummondagi ma'lumotlarga yaqin [3, 10, 12, 13]. Shu bilan birga, fosfomitsinga sezuvchanlik o'rtacha darajada saqlangan; adabiyotda u homiladorlikda xavfsiz va samarali vosita sifatida baholanadi [15]. Rezistent shtammlar bilan bog'liq bakteriuriyada pielonefrit xavfi yuqoriligi [5] antibiotikogrammasiz tanlangan davoning xavfini ko'rsatadi.

Alohida e'tiborga loyiq jihat — er va xotin shtammlarining amoksitsillin va sefotaksimga sezuvchanligi keskin farq qilgani. Bundan tashqari, erkakning o'zida ham siydik va sperma natijalari bir-biriga to'liq mos kelmadi. Demak, juftlikni davolashda bitta antibiotikogrammaga tayanish yetarli emas: har bir sherik, erkakda esa imkon qadar sperma suyuqligi ham alohida tekshirilishi kerak. BD Phoenix M50 tizimi MIK asosida chegaraviy rezistentlikni aniqlagani bois bu maqsad uchun qulay vosita hisoblanadi.

Tadqiqotning cheklovlari: guruhlar hajmi kichik va bir shaharda shakllantirilgan, 2-guruh erkaklari tekshirilmagan, shtammlarning genetik o'xshashligi molekulyar tiplash bilan tasdiqlanmagan. Bu masalalar keyingi tadqiqotlar mavzusi bo'lishi mumkin.

Xulosa

1. Xorazm viloyatida homiladorlarda bakteriuriya chastotasi 2021–2022 yillarda 19,8% dan 26,2% gacha oshgan, asosiy qo'zg'atuvchi *E. coli* bo'lib qolmoqda.
2. SB aniqlangan homiladorlarning turmush o'rtoqlarida siydik va sperma suyuqligi nazoratga nisbatan ancha kam hollarda steril bo'lib, *E. coli* (22–24%) va *K. pneumoniae* (13–24%) bilan kolonizatsiya yuqori.
3. Hududda aminoglikozidlar va levofloksatsin eng faol, amoksitsillin, ko-trimoksazol, makrolidlar va I–III avlod sefalosporinlarining samaradorligi past.
4. Er va xotin shtammlari hamda erkak siydigi va spermasidagi shtammlar sezuvchanligi bir xil emas, shu sababli SB da juftlikni birga tekshirish va har bir sherikni o'z antibiotikogrammasi asosida davolash tavsiya etiladi. Bu xulosalar muallifning avvalgi kuzatuvlari bilan ham mos keladi [2].

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abdullayeva LM, Yusupov UYu, Nadirxanova NS, Lyubchich AS. Homiladorlik davrida siydik chiqarish yo'llari infeksiyalarini tashxislash va davolash bo'yicha milliy klinik bayonnoma. Toshkent; 2021.
2. Matrizayeva QM, Yusupova MA. Asimptomatik bakteriuriya va perinatal asoratlar. Fundamental va klinik tibbiyot axborotnomasi. 2026;21(1):292–295.

3. Палагин ИС, Сухорукова МВ, Дехнич АВ, et al. Антибиотикорезистентность возбудителей внебольничных инфекций мочевых путей в России: результаты многоцентрового исследования «ДАРМИС-2018». КМАХ. 2019;21(2):134–146.
4. Boutouchent N, Vu TNA, Landraud L, Kennedy SP. Urogenital colonization and pathogenicity of E. coli in the vaginal microbiota during pregnancy. Sci Rep. 2024;14:25523. doi:10.1038/s41598-024-76438-2. Scientific Reports+1
5. Denoble A, Reid HW, Krischak M, et al. Bad bugs: antibiotic-resistant bacteriuria in pregnancy and risk of pyelonephritis. Am J Obstet Gynecol MFM. 2022;4(2).
6. de Souza HD, Diório GRM, Peres SV, et al. Bacterial profile and prevalence of urinary tract infections in pregnant women in Latin America: a systematic review and meta-analysis. BMC Pregnancy Childbirth. 2023;23:774.
7. Klein RD, Hultgren SJ. Urinary tract infections: microbial pathogenesis, host-pathogen interactions and new treatment strategies. Nat Rev Microbiol. 2020;18(4):211–226.
8. Li Y, Altalbawy FMA, Hajiahmadi A, et al. Antimicrobial resistance profile and molecular analysis of virulence among Escherichia coli isolated from pregnant women with asymptomatic bacteriuria in Gorgan, Iran. BMC Pregnancy Childbirth. 2026;26:254. doi:10.1186/s12884-026-08765-3.
9. Nicolle LE, Gupta K, Bradley SF, et al. Clinical practice guideline for the management of asymptomatic bacteriuria: 2019 update by the Infectious Diseases Society of America. Clin Infect Dis. 2019;68(10):e83–e110. doi:10.1093/cid/ciy1121.
10. Mohapatra S, Venugopal SJ, Kalaivani M, et al. Antibiotic resistance of uropathogens among the community-dwelling pregnant and nonpregnant female: a step towards antibiotic stewardship. BMC Infect Dis. 2022;22:939.
11. Smaill FM, Vazquez JC. Antibiotics for asymptomatic bacteriuria in pregnancy. Cochrane Database Syst Rev. 2019;(11):CD000490.
12. Odindo DA, Ochieng B, Onduru F, et al. Etiology of asymptomatic bacteriuria, antimicrobial susceptibility patterns and associated risk factors among pregnant women attending antenatal clinic in western Kenya. PLOS Glob Public Health. 2025;5(3):e0004347.
13. Al-Hinai U, Al-Habsi N, Kościuszko Z, Al-Busaidi I. Microbiological and antimicrobial susceptibility pattern of asymptomatic bacteriuria in pregnant women attending SQUH. Oman Med J. 2024;39(2).
14. Ruzmetova DT, Artikova DO. Xorazm viloyatida homilador ayollarda siydik yo'llari infeksiyasining kechishi va unga olib keluvchi omillar. Dermatovenerologiya va reproduktiv salomatlik yangiliklari. 2024;106(3):33–34.
15. Wang T, Wu G, Wang J, et al. Comparison of single-dose fosfomycin tromethamine and other antibiotics for lower uncomplicated urinary tract infection in women and asymptomatic bacteriuria in pregnant women: a systematic review and meta-analysis. Int J Antimicrob Agents. 2020;56:106018.
16. Maniam L, Vellasamy KM, Jindal HM, et al. Demonstrating the utility of Escherichia coli asymptomatic bacteriuria isolates' virulence profile towards diagnosis and management—a preliminary analysis. PLOS ONE. 2022;17(5):e0267296.

Qabul qilingan sana 20.09.2026